

**BO'LAJAK TARBIYACHILARNI IJTIMOYIY VA PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

Quysinova Shahlo Nasim qizi

quysinovas@gmail.com ,88 515 55 00

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada bo'lajak tarbiyachilarda ijtimoiy va pedagogik kompetensiyani shakllantirish yo'llari amalga oshiriladigan tajribalar hamda tarbiyachining ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari haqidagi fikrlar bayon etilgan. "Kompetensiya", "kasbiy kompetensiya" va "ijtimoiy kompetensiya", tushunchalariga ta'rif berilgan. Ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachining muhim ijtimoiy-pedagogik mahorati va ijtimoiy kompetensiyasi ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, bo'lajak tarbiyachi, ijtimoiy kompetensiya, pedagogik kompetensiya .

**ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ
БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ**

Шахрисабзский государственный педагогический институт

Преподаватель кафедры дошкольного образования

Куйсинова – дочь Шахло Насима.

quysinovas@gmail.com , 88 515 55 00

Аннотация

В данной статье изложен опыт способов формирования социально-педагогической компетентности у будущих учителей и представления о педагогических возможностях развития социальной компетентности учителя. Определены понятия «компетентность», «профессиональная компетентность» и «социальная компетентность». В образовательном процессе учитываются важные социально-педагогические навыки и социальная компетентность будущего педагога.

Ключевые слова: дошкольное образование, будущий педагог, социальная компетентность, педагогическая компетентность.

**PRINCIPLES OF DEVELOPING SOCIAL AND PEDAGOGICAL COMPETENCES OF
FUTURE TEACHERS**

Shahrisabz State Pedagogical Institute

Teacher of the Department of Preschool Education

Kuysinova Shahlo Nasim kizi

quysinovas@gmail.com , 88 515 55 00

Annotation: This article describes the experiences of ways of forming social and pedagogical competence in future teachers and the ideas about the pedagogical possibilities of developing the social competence of the teacher. The concepts of "competence", "professional competence" and "social competence" are defined. Important socio-pedagogical skills and social competence of the future educator are considered during the educational process.

Key words: preschool education, future educator, social competence, pedagogical competence.

Kirish (Introduction)

Davlat va jahon oliy tizimida yoshlarni kasbiy ijtimoiylashtirish, ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish, ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligini tarbiyalash metodikasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. AQSH, Rossiya, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarda talaba-yoshlarning tafakkurini o'stirish, qobiliyatlarini erta aniqlash, ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlari samaradorligini oshirish metodikasini takomillashtirishda modulli o'qitish, vebinar va mahorat darslari tashkil etilmoqda. Bo'lajak tarbiyachilar ya'ni bugungi talabalar kelajakda o'z faoliyatlarini amalga oshirish jarayonlarida o'zini talab va nazorat qila bilishi lozimdir va bu ishda tarbiyachiga kompetensiyaviy yondashuvlar yordam beradi. "Maktabgacha ta'lim sifati – ertangi kunimizni hal qiladigan masala" deb aytadi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Bu gaplari haqiqatga judayam yaqindir va bu masalada prezidentimiz pedagog tarbiyachilarimizga ishonadilar. Chunki maktabgacha ta'lim tashkilotlari va tarbiyachilari kelajagimiz hisoblangan bolalarimizga katta hayot uchun poydevor qo'yib berishadi. "poydevor qanchalik mustahkam bo'lsa uy ham mustahkam bo'ladi". Shunday ekan tarbiyachilarimizdan har doimgiidanda katta ma'suliyat talab qilinadi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining "Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati" nomli risolasida shunday yozadi: "Tarbiyachi - ustoz bo'lish uchun boshqalarning aql-idrokini o'stirish, ma'rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun, eng avvalo, tarbiyachining o'zi ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday buyuk fazilatlarga ega bo'lishi kerak".

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Jamiyatdagi barcha yangilanishlarni uyg'unlashtirish uchun shaxsiy yetuklik bilan birga kasbiy kompetentlik ham muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogika universitetlari sharoitida bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini shakllantirish muammosini samarali hal etish ko'p jihatdan o'quv jarayoniga kompetensiyaga asoslangan yondashuvni amalga oshirish orqali ta'minlanishiga erishish mumkin. "Kompetensiya" tushunchasining mohiyati, jamiyat va davlatning postsovet hududida ta'lim samaradorligi va raqobatbardoshligiga e'tibor kuchaygan zamonaviy sharoitda bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish muammosi ustuvor vazifaga aylanmoqda [1]. Oliy pedagogik ta'lim tizimini isloh qilish insonlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan ochiq axborot jamiyatini barpo etishga qodir bo'lgan, ijodiy salohiyatli va yuqori IQ darajasiga ega bo'lgan yangi kadrlar avlodini tayyorlashga qaratilgan. Bu borada bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasini doimiy ravishda rivojlantirish muhimdir.

Kompetensiya – insonning shaxsiy sifatlari uzviyligi (bilim, malaka, tajriba, faoliyat usullari) hisoblanib, ma'lum bir doiradagi narsa va jarayonlarga nisbatan shaxsning munosabatida sifatli va samarali faoliyat yurgazishidir. Kompetentlik esa inson tomonidan faoliyat turlariga shaxsiy munosabatini bildiruvchi, talabga javob beradigan kompetensiyalar yig'indisiga ega bo'lishi demakdir.

Zamonaviy tarbiyachi-pedagog bir qator kompetensiyalarga ega bo'lishi kerak, ular birgalikda uning kasbiy mahoratini belgilaydi. Psixologik-pedagogik kompetensiya bo'lajak tarbiyachining tayyorgarlik darajasini, uning maktabgacha yoshdagi bolalarning individual xususiyatlarini, qobiliyatini va tabiiy iste'dodlarini hisobga olish va ularning keyingi rivojlanishida pedagogik yordam ko'rsatish qobiliyatini belgilaydi.

Uslubiy kompetensiya - bu, birinchi navbatda, tarbiyachi-pedagogning turli maqsadli yo'nalishdagi mashg'ulotlarini aks ettirish, loyihalash va tajriba o'tkazish uchun shakllangan qobiliyatlari.

Kommunikativ kompetensiya bo'lajak tarbiyachining shaxsiy va kasbiy xususiyatlarining ajralmas qismidir. Bo'lajak tarbiyachi bolalar bilan insonparvarlik asosida muloqot qilish qobiliyati ko'p jihatdan pedagogik faoliyat sohasidagi shaxsiy yutuqlar natijalarini belgilaydi.

Nutq kompetensiyasi - bo'lajak tarbiyachilarga nutq madaniyatining tarkibiy qismi, talaffuz, imlo, stilistik, intonatsion va boshqa milliy-madaniy bilimlarni berish orqali shaxslararo muloqot jarayonida malakali foydalana olish, ravshanlik, ishontirish, emotsionallik kabi nutqiy sifatlarga ega bo'lish imkonini beradi. Nutq kompetensiyasiga ega bo'lish bo'lajak tarbiyachilarga bolalar e'tiborini jalb qilish, ularga maslahat va tavsiyalar berishda, so'rovnomalar o'tkazishda samarali natija beradi.

Ijtimoiy kompetensiya bo'lajak tarbiyachining kasbiy kompetensiyalari doirasidagi muhim tarkibiy qism bo'lib, u tarbiyalanuvchilarni jamiyat bilan munosabatlarni o'rnatish imkonini beradi: otaonalar, tengqurlar bilan munosabatga kirishish, madaniy-ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etishga yo'naltiradi.

Muhokama va natijalar (Discussion and results)

Bugungi kun maktabgacha ta'lim tarbiyachisining kasbiy va ijtimoiy kompetentligini shakllantirish – bu uning kunlik layoqatini, ish faoliyatini samaradorligini oshirishdan iborat. Ish faoliyatida kasbiy mahoratni shakllantirish bilan bog'liq muammolarni o'rganish va hal etish, kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish orqali malakali mutaxassislarni tayyorlash mumkin. Bo'lajak tarbiyachining pedagogik-psixologik bilimlarini oshirish zaruriyati ta'lim muassasasiga va o'qituvchilarga qo'yilgan ijtimoiy talablarning o'sishi bilan asoslanadi. Oliy ta'lim sohasida ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini belgilash, undagi talablarga javob beradigan jihatlarni hamda mavjud kamchiliklarni va bo'shliqlarni aniqlash asosida ta'lim berishga bo'lgan haqiqiy ehtiyojlarni belgilash amalga oshiriladi. Shu asosida innovatsiyalarni hayotga joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bu esa pedagogik kompetensiyani rivojlantirishga olib keladi. O'quv jarayonida muhim ahamiyatga ega bo'lgan holatlardan yana biri talabalarning o'quv faoliyatlarini ularning mayllari asosida tashkil etish va o'quvchi shaxsiga yo'naltirishdan iborat. Bular sirasiga talabalarda bilishga qiziqishlari, ularda burch hissi hamda ta'lim jarayonida mas'uliyatlikni shakllantirish metodlari kiradi [4]. Ilm-fan ham, ta'lim – tarbiya ham juda tez suratlarda yuksalmoqda. Ta'lim jarayonida yangilik sifatida kirib kelgan kompetensiya tushunchasi va ularni pedagogik jaroyonda tutgan o'rni haqida qancha ta'kidlansa shuncha oz. Kompetensiya (lot. competo — erishyapman, munosibman, loyiqman) degan ma'nolarni anglatadi. . “Kompetensiya” deyilganda, shaxsning biror-bir sohadan xabardorlik, aloqadorligi, shu sohani bilish darajasi tushuniladi. Demak, biror-bir sohada kompetentligi inson shu soha haqida asosli fikr yuritishi va unda samarali faoliyat olib borish uchun mos bilim va qobiliyatga ega hisoblanadi. Kompetensiyaning maqsad – talabalarni pedagogik kompetentlikning ilmiy-nazariy asoslari, kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyati va ta'limdagi innovatsion jarayonlar tizimida o'qitish va

tarbiyalashda kompetentlikka nisbatan chuqur pedagogik-psixologik tayyorgarlikni shakllantirishdan iborat.

Bo'lajak tarbiyachi bolalarni kognitiv rivojlanishiga imkon beradigan quyidagi ijtimoiy va kasbiy kompetentsiyalarga ega bo'lishi kerak:

1. Ijtimoiy vakolatlarga jismoniy shaxslar o'rtasida ma'lumot almashish, ularning qiziqishlari va ehtiyojlarini bayon qilish, boshqa odamlarga nisbatan bag'rikenglikning namoyon bo'lishi va ularning fikrlari, jamoada ishlash qobiliyati va hissiy barqarorlikka ega bo'lgan boshqa odamlarga turli xil yordam berish qobiliyati kiradi;
2. Operatsion kompetensiyalar – maqsad va ish tartibini belgilash, noaniqlik va noaniqlikka qarshi turish qobiliyati, qaror qabul qilish va amalga oshirish qobiliyati, ish natijalarini sarhisob qilish, ish vaqt jadvalini aniqlash;
3. Maxsus kompetentsiyalarga muammoni hal qilish, o'zini o'zi boshqarish, kasbiy faoliyatda faol bo'lish, yangi vaziyatlarga moslashish, rejalarni baholash va tuzatish, xatolarni aniqlash va ularni yo'q qilishning etarli usullarini rejalashtirish usullari kiradi.
4. Kognitiv kompetensiyalar ma'lumotni mustaqil ravishda qayta ishlash va tuzilishida, yangi axborot manbalarini izlashda, o'qish yoki ishlashga konsentratsiya qilishda, olingan bilim va ko'nikmalardan foydalanish qobiliyatida namoyon bo'ladi;

Pedagogik kompetentlik bir qator ya'ni pedagogika nazariyasi va tarixi, pedagogik konfliktologiya, neyropedagogika, pedagogik imidjalogiya, innovatsion pedagogik texnologiyalar, yosh davrlar psixologiyasi, ijtimoiy pedagogika, pedagogik aksiologiya, pedagogik psixologiya fanlari bilan o'zaro aloqada shakllanadi. Murakkab, mashaqqatli, kutilmagan holatlarga boy, ammo jamiyatning zaruriy ehtiyoji hisoblangan ta'lim-tarbiya tizimini yangicha ko'rinish va yangicha mazmunda amalga oshirish, dars jarayonida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarni samarali qo'llash orqali ta'lim samaradorligiga erishish davr talabidir. Ta'lim muassasasi bitiruvchisi o'z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishini ta'minlashda asosan pedagog kadrlar salohiyati hal qiluvchi omil hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, kasbiy va ijtimoiy kompetensiyalar pedagogik jarayonga kompetentsiyaviy yondashuvni joriy etish uchun asos bo'lib, maktabgacha tarbiyachiga bilim, ko'nikma va malakalarni innovatsion faoliyatni amalga oshirishda va zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan amaliyotda foydalanishda yordam beradimaktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllanishi va rivojlanishida ularning nazariy va amaliy tajribalarga asoslangan bilimlarni chuqur egallab borishlari bilan bog'liq. Bundan tashqari tarbiyachilarning kasbiy kompetentlik shkalasi bo'yicha o'zini rivojlantirib borishi asosida ularda kasbiy kompetensiyani tarkib topib borishiga erishiladi. Doimiy ravishda kasbiy o'sishga erishish va kasbiy malakani oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olish, mustaqil ravishda kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, odatiy kasbiy-pedagogik

vazifalarni to'g'ri hal qilish va o'z mehnatining natijalarini real baholash malakasiga egalik, mutaxassisligi bo'yicha yangi bilim va ko'nikmalarni mustaqil ravishda izchil o'zlashtirib borish qobiliyatiga egalik kabi bosqichlar asosida o'z imkoniyatlarini o'lchovdan o'tkazish vas hu asosida o'z oldiga yangi vazifa va maqsadlarni belgilab olish mumkin. Shunday qilib, bo'lajak tarbiyachining ijtimoiy kompetensiyasi nazariy darajada shakllantirilgan holda, boshqa barcha kompetentsiya turlari bilan birgalikda kasbiy faoliyat sohasida rivojlanib borishi ayon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 28 b.
2. Maxamatova, F. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari. - Международный научно-образовательный электронный журнал «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ». 2021.
3. Xalilova D. F. Talabalarda ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishga oid kasbiy kompetentlikni takomillashtirish. Муғаллим ҳом узликсиз билимлендириў 2022. № 6/1- 1. 5.
4. X.D Furqatovna. Bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik faoliyatiga kreativ yondashuv. PEDAGOGS jurnali, 2022/4/15.
5. Quchqorova Nargiza "Pedagogik kasbiy kompetentligiva kreativlik" -T.:Bookmany Print 2022 y.
6. Sh.Nurullayeva "Maktabgacha ta'limda xorijiy tajribalarning qiyosiy tahlili" -T.: Shahrizabz 2022.
7. Xolto'rayeva S.X. Maktabgacha yoshdagi bolalarga matematik bilim berish orqali fazoviy tasavvurlarni shakllantirishning dolzarbligi. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman, 579-581.
8. Arzikulova S.F. Innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida talabalarning o'z-o'zini personallashtirish jarayonini tashkil qilish// "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi: Maktabgacha ta'lim tizimining innovatsion rivojlanish istiqbollari" respublika ilmiy-amaliy anjuman- Buxoro, 2023. B. 784-787